



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



IC²I JOURNALS
MASTER LIST

ISSN

INTERNATIONAL
JOURNAL
INDEX
SERIALS
CENTRE

doi

zenodo

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBID

Google Scholar

open access.nl



INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

3-JILD, 8-SON
2026

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:

Google Scholar  digital object identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

3-JILD, 8-SON | AVUGUST - 2026 |

+99833 5668868 | www.innoworld.net | @Anvarbek_PhD

VATAN POSBONINING QALBIDA – VATAN, XIZMATINING MAZMUNIDA – XALQ

(Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati misolida)

IIV Malaka oshirish instituti Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, mayor

F.B.Matyakubova

Maxsus fanlar sikli kabinet boshlig'i, leytenant

M.M.Egamqulova.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatida vatanparvarlik, xalq manfaatlariga xizmat qilish, qonuniylik, inson qadri va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash tamoyillarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar tayyorlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, profilaktika faoliyatini takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Vatan, xalq, ichki ishlar organlari, jamoat xavfsizligi, profilaktika, qonuniylik, vatanparvarlik, xizmat intizomi.

Аннотация

В данной статье проанализированы научно-теоретические основы таких принципов, как патриотизм, служение интересам народа, законность, уважение человеческого достоинства и обеспечение безопасности граждан в служебной деятельности сотрудников органов внутренних дел. Также освещены проводимые в системе Министерства внутренних дел Республики Узбекистан реформы, вопросы подготовки кадров, обеспечения общественной безопасности, совершенствования профилактической деятельности, а также эффективность современных механизмов управления.

Ключевые слова: Родина, народ, органы внутренних дел, общественная безопасность, профилактика, законность, патриотизм, служебная дисциплина.

Abstract

This article analyzes the scientific and theoretical foundations of such principles as patriotism, serving the interests of the people, legality, respect for human dignity, and ensuring the safety of citizens in the professional activities of internal affairs officers. It also examines the reforms being implemented within the system of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, personnel training, ensuring public safety, improving preventive activities, and the effectiveness of modern management mechanisms.

Keywords: Homeland, people, internal affairs bodies, public safety, prevention, legality, patriotism, service discipline.

O'zbekiston Respublikasi tinchlik siyosatini olib borish bilan birga o'z zimmasiga fuqarolar xavfsizligi, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash vazifasini

ham oladi. Har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligini ta'minlashga bog'liq. Yurtimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar ichki ishlar organlari faoliyatining mazmunini tubdan o'zgartirdi. Endilikda ichki ishlar organlari faqat jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi tizim emas, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi, ularning osoyishtaligini ta'minlovchi xalqchil davlat tizimiga aylandi⁷³.

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish hamda qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi⁷⁴ kabi vazifalar kiradi. Mazkur vazifalar bevosita xalq manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan bo'lib, ichki ishlar organlarining asosiy xizmat vazifasini belgilaydi.

Ichki ishlar organi xodimining kasbiy faoliyatida vatanparvarlik faqat tuyg'u emas, balki xizmat burchining asosiy mezonidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, davlat organlari, avvalo, xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak⁷⁵. Har bir ichki ishlar organi xodimining qalbida Vatanga sadoqat, xizmatida xalqqa fidoyilik va sadoqat bilan xizmat qilish, faoliyatining mazmunida xalq manfaatlarini himoya qilish kabi ezgu maqsadlar mavjud bo'lishi lozim.

Ichki ishlar vazirligi tizimida xizmat qilayotgan vatanparvar xodim Konstitutsiya va qonunlarga sodiq bo'ladi, xizmat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yadi, fuqarolarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, murakkab vaziyatlarda mas'uliyat bilan qaror qabul qiladi. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari xodimlarining o'z kasbiga sadoqatli, fidoiy, vatanparvar qilib tarbiyalashdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish - oliy burchimiz!" konseptual g'oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi⁷⁶.

Ichki ishlar vazirligi tizimida olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad xodimlarni yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, jismonan va ma'nan yetuk, bilimli, halol, vatanparvar, mard va jasur etib tarbiyalashdan iborat.

So'nggi yillarda Ichki ishlar vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha qator yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, profilaktika inspektorlari faoliyati takomillashtirildi, elektron axborot tizimlari keng joriy

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda "Inson qadri uchun" tamoyiliga oid nutqi.

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-407-son.

⁷⁵ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori.

qilindi, raqamlashtirish darajasi sezilarli oshirildi, xizmat faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kuchaytirildi⁷⁷. Mazkur islohotlar ichki ishlar organlarining xalq bilan muloqotini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda profilaktika eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Profilaktika inspektorlari mahallalarda huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlaydi, yoshlar bilan ishlaydi, oilaviy nizolarni bartaraf etishda ishtirok etadi, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat organlari bilan hamkorlik qiladi, fuqarolarning murojaatlarini joyida hal etadi⁷⁸. Natijada huquqbuzarliklarning oldini olish darajasi sezilarli oshadi.

Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutida bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida professional kadrlar tayyorlamoqda. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion treninglar, raqamli ta'lim texnologiyalari, xorijiy tajribani o'rganish, ilmiy-tadqiqot faoliyati keng qo'llanilmoqda. Bu esa kelajakdagi rahbar va mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida ilmiy yondashuv asosida boshqaruvni takomillashtirish, raqamlashtirishni kengaytirish, xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda xalq bilan ochiq muloqotni rivojlantirish ichki ishlar organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi.

Natijada, zamonaviy ichki ishlar organlari qonun ustuvorligini ta'minlaydi, fuqarolar manfaatlarini himoya qiladi, jamoat xavfsizligini mustahkamlaydi, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni yanada kuchaytiradi. Ichki ishlar organi xodimi har kuni bevosita fuqarolar bilan muloqotda bo'ladigan, jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashadigan va favqulodda xavf-xatarlarga duch keladigan soha vakilidir. Shu sababli uning qalbidagi Vatan tuyg'usi va kasbiga bo'lgan sadoqati ilmiy jihatdan yuqori darajadagi psixologik va axloqiy tayyorgarlikni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi" xodimlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini va kasbiy standartlarini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Ushbu kodeks va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish talablariga ko'ra, IIO xodimi fuqarolar bilan muloqotda xushfe'llik va inson qadrini hurmat qilish tamoyiliga qat'iy amal qilishi lozim, korrupsiya va xizmat mavqeyini suiste'mol qilish holatlari xalqning ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchini yemiruvchi eng xavfli kriminogen omildir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qalbdagi Vatan - xodimga xizmat mashaqqatlarini, ruhiy va fizik toliqishlarni yengishda, jasorat va fidoyilik ko'rsatishda ma'naviy-ruhiy quvvat va motivatsiya manbai bo'ladi, xizmatdagi xalq - IIO faoliyatining samaradorligini va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi bosh mezon, jamoat xavfsizligini ta'minlash va inson qadrini ulug'lashning amaliy ifodasidir. Ichki ishlar organlari xodimlarning ma'naviy-axloqiy kasbiy

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son qarori.

madaniyatini muntazam oshirish Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligi va milliy barqarorlikning eng ishonchli kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ–407-son. 2016-yil 16-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–10-son qarori.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz>.